



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

**QASHQADARYO VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKIOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA
MA'LUMOT**

2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va
dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi



KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- fevral holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 27 969 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 22 736 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 48 789 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar

(1- fevral holatiga)

Ro'yxatdan o'tgan (birlikda)

48 789

2025

47 371

2024

44 557

2023

37 977

2022

32 290

2021

Faoliyat ko'rsatayotgan (birlikda)

27 969

32 691

40 604

36 381


31 280

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2025- yil yanvar oyida)**


2025- yil yanvar oyida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 551 tani tashkil etdi.

Tarmoqlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichni sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida – 222 taga, qurilishda – 4 taga, tashish va saqlashda – 3 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025- yil 1- fevral holatiga 27 969 tani tashkil etib, ulardan 22 736 tasi tadbirkorlik subyektlardir.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 14,2 foiz, sanoat – 10,0 foiz, qurilish – 6,9 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Qarshi shahrida – 20,6 foiz, tumanlardan Qarshi – 7,5 foiz, Kitob – 7,2 foiz, Yakkabog' – 6,8 foiz va Kosonda – 6,7 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	5 760
2 087	Qarshi
Kitob	2 010
1 913	Yakkabog'
Koson	1 869
1 733	Qamashi
Shahrisabz sh.	1 612
1 498	Chiroqchi
Shahrisabz	1 444
1 359	G'uzor
Nishon	1 353
1 284	Kasbi
Dehqonobod	1 156
993	Mirishkor
Muborak	969
929	Ko'kdala

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025- yil yanvar oyida)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2025- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 319 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 318 ta
- yirik korxonalar 1 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni (birlikda)

319 2025

2024 **356**

377 2023


2022 **405**

1 198 2021

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	57
Qarshi	26
Muborak	23
Dehqonobod	22
Ko‘kdala	21
Shahrisabz sh.	21
Qamashi	20
Koson	19
Shahrisabz	17
Kitob	16
Nishon	15
G‘uzor	13
Kasbi	13
Yakkabog‘	13
Mirishkor	12
Chiroqchi	11

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- fevral holatiga 22 889 tani tashkil etdi, ulardan 22 736 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,2 foiz, sanoat – 12,2 foiz, qurilish – 8,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,7 foiz, tashish va saqlash – 3,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,8 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, boshqa turlari – 9,7 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025- yil yanvar oyida)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2025- yil yanvar oyida qurilish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 14 tadan 18 taga (o‘sish 4 taga), tashish va saqlash 9 tadan 12 taga (o‘sish 3 taga) ko‘paydi.

Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)




(2025- yil 1- fevral holatiga)


Tumanlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (21,3 foiz), Qarshi (7,8 foiz), Kitob (7,3 foiz), Yakkabog' (6,8 foiz) va Koson (6,5 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2025- yil 1- fevral holatiga)**

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Qamashi (12,8 foiz), Nishon (10,4 foiz) va Kasbi (9,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.



(2025- yil 1- fevral holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 10,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 89,1 foizini ishlab chiqarish sanoati, 8,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, 1,5 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,8 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Qarshi sh.	534
Kitob	348
Yakkabog'	243
Shahrisabz sh.	232
Qarshi	205
Shahrisabz	200
G'uzor	171
Koson	141
Chiroqchi	133
Qamashi	119
Kasbi	93
Ko'kdala	90
Nishon	84
Muborak	76
Mirishkor	67
Dehqonobod	64

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



2 494 | Ishlab chiqarish sanoati



242 | tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash



43 | Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



21 | Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



(2025- yil 1- fevral holatiga)



O'zbekistonda qurilish sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sohasining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 58,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 20,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 21,2 foiz ulushni tashkil etdi;

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Qarshi sh.	595
Qarshi	215
Koson	175
Yakkabog'	106
Chiroqchi	99
Shahrisabz sh.	98
Muborak	86
Kasbi	86
Qamashi	77
Kitob	74
Shahrisabz	73
G'uzor	63
Dehqonobod	58
Nishon	54
Mirishkor	43
Ko'kdala	41

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Bino va
inshootlar qurish

1 129



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari



403

Fuqarolik
obyektlarini qurish

411



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 8 723 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 68,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 22,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,7 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Qarshi sh.	1 946
Qarshi	692
Koson	645
Chiroqchi	573
Shahrisabz sh.	544
Yakkabog'	540
Kitob	521
G'uzor	466
Qamashi	460
Nishon	393
Kasbi	370
Dehqonobod	354
Shahrisabz	336
Muborak	330
Ko'kdala	301
Mirishkor	285

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



6 018

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

1 981

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

757

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2025- yil 1- fevral holatiga)


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- fevral holatiga 1 550 taga yetib, ularning 1 539 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,0 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)

2025-yil 1-fevral holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining 67,8 foizini;


Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 29,1 foizini;

Ko'rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,1 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	139
Chiroqchi	38
Qarshi	34
G'uzor	23
Shahrisabz sh.	22
Koson	19
Kitob	16
Kasbi	15
Yakkabog'	13
Qamashi	10
Nishon	8
Ko'kdala	6
Dehqonobod	6
Muborak	3
Shahrisabz	3
Mirishkor	2

Yillar kesimida soni (birlikda)



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar

115

127

Aloqa



Noshirlik faoliyati

72

32

Axborot xizmati
ko'rsatish
sohasidagi faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion dasturlari, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

10

1

Dasturlar yaratish bo'yicha
faoliyat va teleko'rsatuv
va radioeshittirish



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2025- yil 1- fevral holatiga)


Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 634 ta yoki 64,9 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:


ushbu sohadagi korxonalar sonining 97,1 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,7 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,2 foizini tashkil etdi.


**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

17



Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

11



(2025- yil 1- fevral holatiga)

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**


Qarshi sh.	260
Qarshi	75
Shahrisabz sh.	59
Koson	47
Kitob	46
Yakkabog'	46
G'uzor	43
Shahrisabz	37
Kasbi	33
Mirishkor	32
Chiroqchi	18
Dehqonobod	14
Ko'kdala	13
Qamashi	12
Nishon	12
Muborak	10

2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdi:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 79,6 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 16,6 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,7 foizni;
- havo transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,1 foizni tashkil etgan.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



1

Havo transporti



28

Pochta va kuryerlik



126

Omchor xo'jaligi va yordamchi
transport faoliyati



602

Quruqlikdagi va quvur transporti



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiylumot

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quydagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarini tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

13 825

**mas'uliyati cheklangan
jamiyat**

60,4

5 885

xususiy korxonalar

25,7

2 872

oilaviy korxonalar

12,5

35

aksiyadorlik jamiyat

0,2

272

boshqalar


1,2

(2025- yil yanvar oyida)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	51
Qarshi	20
Qamashi	19
Muborak	19
Ko'kdala	18
Koson	17
Dehqonobod	15
Nishon	14

Mirishkor	12
Kasbi	12
Shahrisabz sh.	12
Yakkabog'	11
G'uzor	9
Chiroqchi	9
Kitob	7
Shahrisabz	6

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Amaldagi 22 889 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025- yil 1- fevral holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 13 825 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 20,5 foiz, qurilish – 10,7 foiz, sanoat – 10,4 foiz.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	3 326
Koson	1 129
Yakkabog'	1 041
Qamashi	989
Qarshi	975
Kasbi	802
Chiroqchi	737
Nishon	705


Kitob	650
Mirishkor	634
Shahrisabz sh.	592
Muborak	571
G'uzor	564
Shahrisabz	495
Ko'kdala	402
Dehqonobod	203

(2025- yil yanvar oyida)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Kitob	7
Dehqonobod	7
Shahrisabz sh.	7
Shahrisabz	6
Qarshi	3
Qarshi sh.	3
G‘uzor	2
Muborak	2


Ko‘kdala	2
Yakkabog‘	2
Qamashi	1
Kasbi	1
Koson	1
Chiroqchi	-
Nishon	-
Mirishkor	-

(2025- yil 1- fevral holatiga)

2025- yil 1- fevral holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Qarshi shahrida – 1 021 ta, Kitob – 781 ta va Shahrисabz shahrida – 589 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 2 668 ta, sanoat – 755 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 534 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 530 ta.

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	1 021
Kitob	781
Shahrисabz sh.	589
Dehqonobod	579
Yakkabog'	417
Qarshi	395
Shahrисabz	305
Nishon	304


Qamashi	274
Chiroqchi	271
Kasbi	221
Koson	207
G'uzor	183
Muborak	135
Ko'kdala	104
Mirishkor	98

(2025- yil yanvar oyida)

Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo’lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Shahrisabz	5
Qarshi	3
Qarshi sh.	3
G’uzor	2
Kitob	2
Chiroqchi	2
Shahrisabz sh.	2
Koson	1

Muborak	1
Nishon	1
Ko’kdala	1
Dehqonobod	-
Qamashi	-
Mirishkor	-
Kasbi	-
Yakkabog‘	-


(2025- yil 1- fevral holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra 2 872 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,5 foiz, sanoat – 19,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 16,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 15,6 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Qarshi shahrida – 15,8 foiz, Qarshi – 13,1 foiz va G'uzor tumanida – 11,5 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	454
Qarshi	377
G'uzor	329
Shahrisabz	312
Kitob	214
Shahrisabz sh.	181
Ko'kdala	178
Chiroqchi	156

Koson	143
Qamashi	132
Nishon	109
Yakkabog'	93
Muborak	80
Dehqonobod	48
Mirishkor	45
Kasbi	21

(2025-yil 1-fevral holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismalaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'naliishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Koson (15,0 foiz), Mirishkor (9,3 foiz) va Qarshi (8,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Koson	1 959
Mirishkor	1 218
Qarshi	1 110
Kitob	1 078
Nishon	1 021
Ko'kdala	991
Yakkabog'	955
Shahrisabz	837
Chiroqchi	809
Kasbi	768
Qamashi	704
G'uzor	637
Muborak	510
Dehqonobod	492
Shahrisabz sh.	14

Yillar kesimida soni (birlikda)



12 995 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish

Baliq ovlash va akvakultura


O'rmonchilik va yog'och tayyorlash

**Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2025-yil 1-fevral holatiga)**

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 141 ta korxonalardan 75 tasi qo'shma korxonalar va 66 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qarshi sh.	34
Muborak	13
G'uzor	12
Nishon	10
Koson	9
Chiroqchi	9
Kitob	9
Qarshi	7

Kasbi	7
Dehqonobod	6
Qamashi	6
Yakkabog'	6
Mirishkor	5
Shahrisabz	4
Ko'kdala	2
Shahrisabz sh.	2

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirdorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Yetakchi o'rinni 31 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 22,0 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 14,9 foiz), Turkiya (ulushi 9,9 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,4 foiz) va Qozog'iston (ulushi 2,8 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.


(2025- yil 1- fevral holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberalallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Qarshi shahriga 24,1 foiz, tumanlar orasida esa Muborak – 9,2 foiz, G'uzor – 8,5 foiz va Nishonga – 7,1 foiz to'g'ri keladi.

(2025- yil 1- fevral holatiga)



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1- fevral** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



**Statistik registrlarni
yuritish bo‘limi**
Tel.:(75) 221-17-93